

NAVOIY SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI SOHASIDA BRT TIZIMINI QO'LLASH ORQALI TIRBANDLIKLAR VA KECHIKISHLARNING OLDINI OLISH YO'LLARI

Azamova Shahzoda Xudoyberdi qizi

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Kimyo-metalurgiya fakulteti 2-bosqich talabasi

shahzodaazamova645@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20772439>

Navoiy shahrida urbanizatsiya jarayonlarining jadallashishi va aholi sonining tez sur'atlar bilan o'sib borishi jamoat transportiga bo'lgan talabni sezilarli darajada oshirdi. Ushbu ehtiyojni qondirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-martdagi "Jamoat transportini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-139-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, 2025-yil davomida Navoiy viloyatida 5 ta yangi jamoat transporti yo'nalishi tashkil etildi. Bular:

SHI-1 "Karmana avtoshohbekati-Sputnik qo'rgoni",

SHI-2 "Navoiyazot AJ-Sharq avtostansiyasi",

SHI-3 "Karmana dehqon bozori-Avtomobil yo'l boshqarmasi",

SHI-4 "Karmana avtoshohbekati-Temir yo'l vokzali",

SHI-5 "Malika avtostansiyasi- Tinchlik qo'rgoni"

Shahar ko'chalari jamoat transporti tarmog'i bilan keng qamrab olingan bo'lsa-da, kunning tig'iz vaqtlarida — ertalabki 08:00–09:00 va kechki 18:00–19:00 soatlarida yuzaga keluvchi tirbandliklar tufayli avtobuslarning harakat jadvalidan kechikishi va qatnovlar oralig'idagi uzilishlar dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Urbanizatsiya sharoitida jamoat transportining tig'iz vaqtlardagi barqaror faoliyatini ta'minlash — shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilishning birlamchi shartidir. Shu sababli shahar hududi infratuzilmasidan kelib chiqqan holda BRT (Bus rapid transit system) tizimi joriy qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Navoiy shahrida jamoat transportining jozibadorligi va aniqligini ta'minlash uchun BRT tizimini quyidagi bosqichlarda joriy etish maqsadga muvofiq:

Geometrik moslashtirish va alohida yo'laklar (Dedicated Lanes):

Yangi tashkil etilgan yo'nalishlar o'tuvchi markaziy va tirbandlik yuqori bo'lgan ko'chalarda jamoat transporti uchun umumiy oqimdan ajratilgan maxsus yo'laklar tarmog'ini yaratish. Bu tizim shahar atrofi va markazni bog'lovchi uzoq masofali yo'nalishlarda avtobuslarning xususiy avtomobillar tirbandligiga qaram bo'lmasdan, doimiy barqaror tezlikda harakatlanishini ta'minlaydi.

Chorrahalarda ustuvorlik tizimi (Transit Signal Priority):

BRT koridorlari kesishgan asosiy chorrahalarda intellektual svetofofor tizimlarini o'rnatish lozim. Bunda yaqinlashayotgan avtobus datchiklar (sensorlar) yoki GPS orqali aniqlanib, u uchun yashil chiroq fazasi avtomatik ravishda uzaytiriladi. Natijada yirik avtobuslarning chorrahalaridagi to'xtab turish vaqti kamayadi.

Ekologik va iqtisodiy barqarorlik:

BRT tizimi shahzar hududida joriy etish natijasida jamoat transportining aniqligi va qulayligi ortishi hisobiga aholining shaxsiy avtomobillardan foydalanish darajasi kamayadi. Bu nafaqat shahar ko'chalaridagi tirbandliklarni bartaraf etadi, balki atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdorini ham sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz kerakki, Navoiy shahrida jamoat transporti sohasida BRT tizimini bosqichma-bosqich qo'llash — nafaqat bugungi kungi kechikishlar va tirbandliklarning oldini oladi, balki kelajakda shaharning barqaror (Sustainable green city) va "aqlli" urbanizatsiya modeliga o'tishini taminlovchi fundamental poydevor vazifasini o'taydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston respublikasi hukumat portal <https://gov.uz/oz/navoi/news/view/101567>
2. Jamoat transporti sohasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishning istiqbollari Azamova Shahzoda Xudoyberdi qizi
3. Jamoat transportini rivojlantirishning ahamiyati (Navoiy shahri misolida) Azamova Shahzoda Xudoyberdi qizi
4. Shahar jamoat transporti tizimi bo'g'lanishlarni takomillashtirish yo'llari (Navoiy shahar misolida) Azamova Shahzoda Xudoyberdi qizi